

TALABALARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA KUTUBXONA RESURLARINING ROLI

Sharipova Dilbarxan Atajanovna – *katta o‘qituvchi*
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: raqamli savodxonlik, kutubxona resurslari, elektron kutubxona, axborot texnologiyalari, talabalar kompetensiyasi, raqamli madaniyat, oliy ta‘lim, axborotga kirish.

Ключевые слова: цифровая грамотность, библиотечные ресурсы, электронная библиотека, информационные технологии, компетенции студентов, цифровая культура, высшее образование, доступ к информации.

Key words: digital literacy, library resources, electronic library, information technologies, student competencies, digital culture, higher education, information access.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda har bir shaxsning raqamli savodxon bo‘lishi zaruriy holga aylandi. Ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun bu savodxonlik – nafaqat ta‘lim jarayonida, balki hayotning barcha sohalarida muvaffaqiyatga erishishda muhim kompetensiya hisoblanadi [4.250-253]. Raqamli savodxonlik – bu faqatgina kompyuterdan yoki internetdan foydalanish emas, balki axborotni tanlash, tahlil qilish, baholash, yaratish va xavfsiz ishlatish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning yig‘indisidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, kutubxonalar, xususan, oliy o‘quv yurtlari kutubxonalari talabalarning raqamli savodxonligini shakllantirishda muhim resurs va platforma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy kutubxonalar faqatgina bosma adabiyotlarni saqlovchi joy emas, balki interaktiv axborot muhitini taklif qiluvchi, foydalanuvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiluvchi markazlarga aylanmoqda [10, 23-29]. Elektron kataloglar, raqamli ma‘lumotlar bazalari, ochiq kirishli resurslar va axborot xizmatlari orqali talabalar turli manbalarga tezkor kirish imkoniga ega bo‘lib, mustaqil izlanish, tahlil qilish va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar [3, 890-897]. Mazkur maqolada talabalarning raqamli savodxonligini shakllantirishda kutubxona resurslarining tutgan o‘rni, mavjud imkoniyatlar, muammolar hamda rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Shuningdek, kutubxonalarning bu boradagi yangi vazifalari va ularni samarali amalga oshirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.

Zamonaviy axborot makonida raqamli savodxonlik talabalarning asosiy raqobatbardoshlik omillaridan biriga aylanmoqda. Mazkur tadqiqotda bu savodxonlikni shakllantirishda oliy o‘quv yurtlari kutubxonalari qanday rol o‘ynayotgani, kutubxona resurslarining qamrovi va samaradorligini aniqlash maqsad

qilingan. Tadqiqotni aniq, tizimli va chuqur tahlil qilish uchun aralash metod – ya‘ni sifatli va miqdoriy yondashuvlar uyg‘unligi asos qilib olindi. Tadqiqot 2024-yil noyabr-dekabr oylarida uchta yirik oliy ta‘lim muassasasi – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti va Samarqand davlat universiteti kutubxonalarida olib borildi. Tanlov asosida har bir OTMdan 150 nafardan talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilarning umumiy soni 450 nafar bo‘lib, ularning 60 foizi bakalavriat, 40 foizi esa magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar edi. Talabalar axborot texnologiyalari, tilshunoslik, iqtisod va pedagogika kabi turli yo‘nalishlarni qamrab oldi. Tadqiqot jarayonida bir necha ma‘lumot to‘plash usullaridan foydalanildi. Avvalo, so‘rovnomalar orqali talabalarning raqamli kutubxona resurslaridan foydalanish chastotasi, ular duch kelayotgan muammolar va mavjud ko‘nikmalar o‘rganildi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalar haftasiga o‘rtacha 4,2 soat raqamli kutubxona xizmatlaridan foydalanadi. Eng ko‘p foydalaniladigan resurslar qatoriga Google Scholar (68%), Respublika axborot kutubxona markazi (RAKM) (51%) va EBSCO (34%) kirdi. Shu bilan birga, talabalar orasida raqamli xavfsizlik (43%) va axborot tanlash ko‘nikmasi (39%) yetarli darajada rivojlanmagani aniqlandi.

Bundan tashqari, kutubxona xodimlari bilan yarim strukturalangan intervyular ham o‘tkazildi. Jumladan, har bir OTMdan to‘rt nafardan jami 12 nafar mutaxassis bilan suhbat uyushtirildi. Ular so‘nggi yillarda raqamli kutubxona xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar, treninglar va talabalar bilan ishlash metodikasi haqida ma‘lumot berdi. Masalan, TATU kutubxonasida 2023-yil davomida raqamli savodxonlik bo‘yicha 24 ta trening tashkil etilgan bo‘lib, har bir tadbirga o‘rtacha 20–25 nafar talaba jalb etilgan. Kontent tahlili orqali kutubxonalarning elektron resurslari, veb-saytlari va virtual xizmatlarining funk-

sionalligi baholandi. Raqamli kataloglar (Koha, ARMAT), litsenziyalangan ma'lumotlar bazalari (JSTOR, EBSCO) mavjudligi va ularga kirish qulayligi ko'rib chiqildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ba'zi kutubxonalar kuchli texnik platformalarga ega bo'lsa-da, foydalanuvchilarning ulardan foydalanish bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega emasligi sezildi. Tahlil natijalari SPSS dasturi yordamida statistik metodlar (foizlar, o'rtacha ko'rsatkichlar, korrelyatsiya tahlili) asosida umumlashtirildi. Sifatli intervyu natijalari esa NVivo dasturi yordamida tematik kodlash orqali guruhlab tahlil qilindi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari kutubxona resurslarining talabalarning raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi real o'rnini ko'rsatib berdi. Miqdoriy va sifatli tahlillar asosida raqamli kutubxona xizmatlarining talabalarga qanchalik foydali bo'layotgani, foydalanish chastotasi, mavjud muammolar va kutubxonachilarning ushbu jarayondagi ishtiroki aniqlandi. Natijalar orqali respublikadagi oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarining raqamli infratuzilmasi va uni qanday amalga oshirayotganlik darajasi tahlil qilindi.

Tadqiqotda ishtirok etgan 450 nafar talabani 82 foizi raqamli kutubxona xizmatlaridan muntazam foydalanishini bildirgan. Ular eng ko'p foydalanadigan raqamli manbalar qatorida Google Scholar (68%), Respublika axborot kutubxona markazi (RAKM) (51%), va EBSCO (34%) kabi xalqaro va mahalliy platformalar qayd etildi. Talabalar bu resurslardan ilmiy maqolalar, o'quv materiallari, dissertatsiyalar va elektron darsliklarni izlashda foydalanishadi.

So'rovnomalarda qatnashganlarning 61 foizi kutubxona saytiga haftasiga kamida bir marta kirishini bildirgan. Biroq, foydalanuvchilarning 43 foizi raqamli xavfsizlik, 39 foizi esa axborotning ishonchligini aniqlash bo'yicha qiyinchiliklarga duch kelayotganini tan oldi. Bu esa raqamli savodxonlik ko'nikmalarining ba'zi elementlari hali to'liq shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Yarim strukturalangan intervyular natijasida aniqlanishicha, tahlil qilingan kutubxonalar raqamli xizmatlarni taklif qilmoqda, ammo bu xizmatlardan foydalanish bo'yicha talabalar yetarli o'rgatilmagan. Masalan, TATU kutubxonasida 2023-yilda 24 ta raqamli savodxonlik bo'yicha trening o'tkazilgan bo'lsa-da, intervyu bergan kutubxonachilar ushbu mashg'ulotlarda qatnashuvchilar sonining pastligidan shikoyat qilishgan. Kontent tahlil

natijalari shuni ko'rsatdiki, ba'zi OTM kutubxonalarida zamonaviy tizimlar (masalan, Koha, ARMAT, elektron kataloglar) joriy etilgan bo'lsa-da, foydalanuvchi interfeysi oddiy talaba uchun yetarlicha qulay emas. Shu bilan birga, mavjud elektron resurslar soni va ularning sifati oliy ta'lim muassasalari kesimida keskin farqlanadi: ayrim universitetlarda JSTOR, Springer kabi global platformalarga obuna mavjud bo'lsa, boshqalarida bu imkoniyat cheklangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kutubxona resurslari talabalarning raqamli savodxonligini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq, raqamli axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ma'lumotlar oqimining ortib borishi va talabalar ehtiyojlarining murakkablashuvi bu resurslardan foydalanishda bir qator yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, kutubxonalar endilikda faqat ma'lumot saqlovchi emas, balki raqamli kompetensiyalarni rivojlantiruvchi faol ishtirokchiga aylanishi lozim.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan faktlar raqamli savodxonlik tushunchasining faqatgina texnik ko'nikmalar bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Raqamli savodxonlik deganda – axborotni izlash, tahlil qilish, tanlash, baholash va xavfsiz foydalanish qobiliyatlari tushuniladi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda kutubxonalar axborot manbalarini taqdim etish bilan birga, talabalarga metodik ko'mak ham ko'rsatishi zarur. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, aksariyat talabalar kutubxona saytlariga kirish imkoniyatiga ega bo'lsalar-da, ulardagi ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish, kerakli manbalarni topish va tanlashda qiynalishmoqda. Bu esa kutubxonalarning raqamli resurslardan foydalanishga oid maxsus trening va seminarlar o'tkazish zaruratini yuzaga keltiradi. Taqqoslash uchun, xorijiy tajribalarda, xususan, AQSh va Buyuk Britaniyada, universitet kutubxonalari muntazam ravishda «**information literacy workshops**» va «**digital skills clinics**» tashkil qiladi. Ushbu faoliyatlar orqali talabalar mustaqil izlanish olib borish, plagiatdan saqlanish va ilmiy manbalarni to'g'ri iqtibos keltirish kabi ko'nikmalarni egallaydi.

Mahalliy kutubxonalar esa, afsuski, bu yo'nalishda hali boshlang'ich bosqichda. Ko'pgina kutubxonalar texnik resurslarga ega bo'lsa-da, inson resurslari – ya'ni raqamli savodxonlikni o'rgata oladigan malakali xodimlar soni kam. Bundan tashqari, axborot-kutubxona platformalarining foydalanuvchiga qulayligi (user-friendliness) ham dolzarb masala. Bu borada foydalanuvchi tajribasini (UX) o'rganishga, sayt

dizaynini soddalashtirishga va ko'rsatma videodarsliklar yaratishga ehtiyoj bor. Shuningdek, kutubxona-resurs markazlari hamda akademik fakultetlar o'rtasida integratsiya yetarlicha yo'lga qo'yilmagan. Bu esa talabning bilim olish jarayonida kutubxona resurslaridan foydalanishini ikkilamchi holga tushirib qo'ymoqda. Raqamli savodxonlikni real shakllantirish uchun kutubxona faoliyati o'quv dasturlariga bevosita integratsiya qilinishi lozim. Masalan, fan doirasida majburiy kutubxona topshiriqlari, elektron manbalarni izlashga asoslangan vazifalar kiritilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kutubxona resurslarining raqamli savodxonlikni rivojlantirishdagi roli shubhasizdir, ammo bu resurslarning samaradorligi kutubxonalarning metodik, texnologik va pedagogik tayyorgarligiga bevosita bog'liq. Zamonaviy kutubxonalar faqat xizmat ko'rsatuvchi emas, balki o'rgatuvchi va yo'naltiruvchi markaz sifatida faoliyat yuritishi zarur. Bu esa davlat siyosati, OTM rahbariyati va kutubxona xodimlarining uzviy hamkorligi asosida amalga oshishi mumkin. Kelajakda ushbu yo'nalishda innovatsion yondashuvlar, tajriba almashinuvi va milliy strategik dasturlar orqali sifatli natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy kutubxona resurslari talabalarning

raqamli savodxonligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Elektron kutubxonalar, raqamli ma'lumotlar bazalari, ochiq ta'lim resurslari va boshqa raqamli axborot vositalari yordamida talabalar axborotni izlash, saralash, baholash va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq bu jarayon samaradorligini ta'minlash uchun kutubxonalar faqat axborot manbai emas, balki raqamli kompetensiyalarni shakllantiruvchi ta'limiy muhit sifatida faoliyat yuritishi lozim. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, talabalar raqamli vositalardan foydalanishda texnik imkoniyatlarga ega bo'lsalar-da, ulardan to'g'ri va tanqidiy foydalanish borasida hali yetarli bilim va ko'nikmaga ega emaslar. Shu sababli kutubxonalar tomonidan raqamli savodxonlik bo'yicha maxsus dasturlar, treninglar va maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish zarurati mavjud. Bundan tashqari, kutubxona xodimlarining o'zlari ham raqamli kompetensiyalar bo'yicha muntazam malaka oshirib borishlari kerak. Umuman olganda, raqamli savodxonlikni rivojlantirishda kutubxona resurslari yetakchi omillardan biri bo'lib, ularni to'g'ri tashkil etish va samarali yo'naltirish orqali talabalarning zamonaviy axborot muhitida mustaqil, ongli va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Byundyugova Tatiana V., Anna V. Babikova, and Elena V. Kornienko. «Formation and development of digital literacy of the population based on visualization technologies». *International Journal of Media and Information Literacy* (2021). 6.1.- 57-65.
2. Inamdar Sayed Ahmed. «The role of libraries in promoting digital literacy in the 21st century.» *Journal of emerging technologies and innovative research (JETIR)* (2021)8.8.- 502-505.
3. Kosimova Nargiza Dilmuratovna. «Kitoblar va ularning universitetda ta'lim madaniyatini shakllantirishga tasiri». *American journal of education and learning*. (2025)3.4.- 890-897.
4. Inamova Dilfuzaxon. «Oliy ta'lim talabalari va ularning axborot manbalariga bo'lgan ehtiyoji». *Qo'qon universiteti Xabarnomasi* (2024)13. 250-253b.
5. Ikromov Muxammad-Anasxon Hakimjon o'gli. «Talabalarning mustaqil o'quv faoliyatida raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan foydalanish texnologiyali». *OrientalArtandCulture*. (2024).
6. Акулина Светлана Владимировна, Елена Валерьевна Петухова. «Роль вузовской библиотеки в формировании информационной грамотности и компетенции в процессе подготовки специалистов». *Вестник Российского университета кооперации*. (2014).4 (18).- 70-76с.
7. Ильинцев Д.В. «Роль библиотек в формировании цифровой культуры». *Формирование электронной культуры в процессе непрерывного образования: проблемы и перспективы*. 2016.
8. Кожогелдиева Мээрим Абдыкалыковна, Туйгун Муктарович Бектуров. «Развитие информационной грамотности студентов в эпоху цифровых технологий». *Эпоха науки*. (2024).
9. Слемнёва В. В. «Роль научной библиотеки в формировании информационной грамотности». *Библиотечно-информационный дискуссионный журнал*. (2022)1.1.- 23-29с.

REZYUME. Ushbu maqolada zamonaviy kutubxona resurslarining talabalarning raqamli savodxonligini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda talabalarning axborotni izlash, tanlash, baholash va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish ta'limning muhim vazifalaridan biriga aylangan. Tadqiqotda oliy

ta'lim muassasalaridagi kutubxonalarining elektron resurslardan foydalanish holati, kutubxonachilarning raqamli savodxonlikni rivojlantirishdagi ishtiroki, shuningdek mavjud infratuzilmaning samaradorlik darajasi o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kutubxona resurslaridan maqsadli va tizimli foydalanish orqali talabalarning raqamli kompetensiyalarini samarali shakllantirish mumkin. Maqola yakunida muammoni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье проанализирована роль и значение современных библиотечных ресурсов в формировании цифровой грамотности студентов. В условиях стремительного развития цифровых технологий умение студентов находить, оценивать и эффективно использовать информацию становится одной из важнейших задач образования. В исследовании рассматривается использование электронных ресурсов в библиотеках высших учебных заведений, участие библиотекарей в развитии цифровой грамотности, а также эффективность существующей инфраструктуры. Результаты исследования показывают, что целенаправленное и системное использование библиотечных ресурсов способствует формированию цифровых компетенций у студентов. В заключение статьи представлены практические рекомендации по решению выявленных проблем.

SUMMARY. This article analyzes the role and importance of modern library resources in developing students' digital literacy. In the context of rapidly evolving digital technologies, the ability of students to search, evaluate, and effectively use information has become one of the key educational objectives. The study examines the use of electronic resources in higher education libraries, the involvement of librarians in promoting digital literacy, and the efficiency of the current infrastructure. The findings show that systematic and targeted use of library resources can significantly enhance students' digital competencies. Practical recommendations for addressing the identified challenges are proposed at the end of the article.

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI VA UNING TARIXIY ILDIZLARI

Bekmuratova Miyrigul Erbayevna – o'qituvchi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so'zlar: o'zbek xalq og'zaki ijodi, ertaklar, dostonlar, maqollar, tarixiy ildizlar, xalq tafakkuri, milliy ma'naviyat, folklor.

Ключевые слова: узбекское народное устное творчество, сказки, эпосы, пословицы, исторические корни, народная мысль, национальная духовность, фольклор.

Key words: uzbek folk oral art, fairy tales, epics, proverbs, historical roots, folk thought, national spirituality, folklore.

Kirish. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixiy-madaniy taraqqiyoti davomida shakllangan og'zaki ijodi xalq tafakkuri, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va estetik didining yorqin ifodasidir. Og'zaki ijod namunalari – ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar va afsonalar – xalqning og'zaki nutqiy merosi sifatida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda va milliy o'zlikni anglashda muhim rol o'ynaydi. Bu asarlar orqali o'zbek xalqining qadimiy tarixiy ildizlari, urf-odatlar, qadriyatlar va orzu-umidlari aks etadi. Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining asosiy janrlari, ularning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati bilan bir qatorda, uning tarixiy ildizlari va shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot og'zaki ijodning o'tmish va bugungi kun o'rtasidagi bog'liqligini ochib berishga qaratilgan.

Xalq og'zaki ijodi - bu xalq orasida og'zaki shaklda yaratilgan, asrlar davomida avloddan-avlodga o'tgan badiiy ijod mahsulidir. U xalqning hayoti, mehnati, urf-odatlar va orzu-umidlarini aks ettirib, bevosita xalq orasida tarqaladi va ko'pincha muallifi noma'lum bo'ladi. Xalq og'zaki ijodining asosiy xususiyati uning kollektiv yaratilishi va xalq ijodkorligi mahsuli bo'lishidir. Har bir avlod o'z davrining ma'naviy ehtiyojlariga qarab ushbu asarlarni boyitib, yangi shakllar bilan to'ldirgan [4.196-198].

O'zbek xalq og'zaki ijodi quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

- **Ertaklar** – bolalarni tarbiyalashda muhim vosita bo'lgan badiiy hikoyalar.

- **Dostonlar** – tarixiy yoki afsonaviy qahramonlarning jasorati va vatanparvarligini kuylovchi yirik epik asarlar (masalan,